

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

BADIIY PSIXOLOGIZM VA GENDER IDENTIFIKATSIYA MASALASI: VIRJINIYA VULF VA SALOMAT VAFO NASRINING QIYOSIY TAHLILI

Shirinoy Hayitova Sirojiddin qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: shirinoyhayitova2@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-8726-3442>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm va gender identifikatsiyasining asosiy mezonlari hamda funksiyalari qiyosiy tahlil asosida ochib berilgan. Tadqiqotning maqsadi — Virjiniya Vulfning “Mrs. Dallovey” romani, “Shaxsiy xona” (A Room of One's Own) esse-qissasi va Salomat Vafoning “O'zini izlayotgan ayol” romani, “Muqaddas manzil” hamda “Poyezd” hikoyalari misolida ushbu ikki konsepsiyaning badiiy namoyon bo'lish shakllarini aniqlash va ikki ijodkor nasri o'rtasidagi tipologik mushtarakliklarni ko'rsatishdan iborat. Qiyosiy-tipologik metod, psixoanalitik yondashuv, biografik-kontekstual metod hamda germinenvtik metodlar asosida o'tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, Vulf va Vafo ayol obrazini passiv xarakter sifatida emas, balki o'z ichki dunyosiga, ziddiyatlariga va qarorlariga ega mustaqil shaxs sifatida tasvirlaydi. Shuningdek, qiyosi tahlil natijasida to'rtta tipologik mushtaraklik aniqlandi: (1) ayol obrazining markaziy o'rni; (2) ichki monolog usulining ustuvorligi; (3) gender identifikatsiyasining ijtimoiy ziddiyat orqali ifodalanishi; (4) shaxsiy erkinlik va ijtimoiy rol o'rtasidagi konflikt. Shu bilan birga, Vulf ingliz modernizmining individualistik an'anasiga, Vafo esa o'zbek nasrining jamoaviy qadriyatlar tizimiga tayanganligi aniqlandi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, ingliz modernizmi va zamonaviy o'zbek nasri kontekstida badiiy psixologizm va gender xosligining qiyosiy tahlili ilk bor amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: badiiy psixologizm, gender nazariyasi, Virjiniya Vulf, Salomat Vafo, ruhiyat, psixologik tasvir.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПСИХОЛОГИЗМ И ПРОБЛЕМА ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРОЗЫ ВИРДЖИНИИ ВУЛФ И САЛОМАТ ВАФО

Шириной Хаитова Сирожиддин кизи

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы, базовый докторант.

Аннотация.

В статье на основе сравнительного анализа раскрываются основные критерии и функции художественного психологизма и гендерной идентичности в литературоведении. Цель исследования заключается в выявлении форм художественного воплощения данных концепций на материале романа Вирджинии Вулф «Миссис Дэллоуэй», эссе «Своя комната» (A Room of One's Own), а также романа Саломат Вафо «Женщина, ищущая себя», рассказов «Священное место» и «Поезд», а также в определении типологических общностей прозы двух писательниц. Исследование выполнено с применением сравнительно-типологического, психоаналитического, биографико-контекстуального и герменевтического методов. Результаты показали, что Вирджиния Вулф и Саломат Вафо изображают женщину не как пассивного персонажа, а как самостоятельную личность со своим внутренним миром, противоречиями и правом выбора. В ходе сравнительного анализа были выявлены четыре типологические общности: (1) центральное место женского образа; (2) доминирование внутреннего монолога; (3) раскрытие гендерной идентичности через социальный конфликт; (4) противоречие между личной свободой и социальной ролью. Вместе с тем установлено, что художественная концепция Вулф основана на традициях английского модернистского индивидуализма, тогда как творчество Саломат Вафо опирается на систему коллективистских ценностей узбекской литературы. Научная новизна исследования заключается в том, что сравнительный анализ художественного психологизма и гендерной идентичности в контексте английского модернизма и современной узбекской прозы проводится впервые.

Ключевые слова: художественный психологизм, гендерная теория, Вирджиния Вулф, Саломат Вафо, внутренний мир, психологическое изображение.

ARTISTIC PSYCHOLOGISM AND GENDER IDENTITY: A COMPARATIVE STUDY OF THE PROSE OF VIRGINIA WOOLF AND SALOMAT VAFO

Shirinoy Hayitova Sirojiddin qizi

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Basic Doctoral Student.

Abstract.

This article examines the main criteria and functions of literary psychologism and gender identity through a comparative literary analysis. The aim of the study is to identify the artistic manifestations of these concepts based on Virginia Woolf's novel *Mrs Dalloway*, the essay *A Room of One's Own*, Salomat Vafo's novel *The Woman Searching for Herself*, and the short stories *The Sacred Place* and *The Train*, as well as to reveal the typological similarities between the prose of the two writers. The research employs comparative-typological, psychoanalytic, biographical-contextual, and hermeneutic methods. The findings demonstrate that both Woolf and Vafo portray women not as passive characters but as independent individuals with their own inner world, personal conflicts, and freedom of choice. The comparative analysis identified four major typological similarities: (1) the central role of the female protagonist; (2) the predominance of the interior monologue; (3) the representation of gender identity through social conflict; and (4) the tension between personal freedom and social roles. At the same time, the study reveals that Woolf's artistic vision is rooted in the individualistic tradition of English modernism, whereas Vafo's prose reflects the collective value system of modern Uzbek literature. The scientific novelty of the study lies in presenting the first comparative analysis of literary psychologism and gender identity within the contexts of English modernism and contemporary Uzbek prose.

Keywords: literary psychologism, gender theory, Virginia Woolf, Salomat Vafo, inner world, psychological representation.

Kirish. Badiiy psixologizm va gender identifikatsiyasi masalalari bugungi adabiyotshunoslikda muhim o'rganish yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Badiiy psixologizm — personajning ichki ruhiy olamini ochib beruvchi usullar majmui sifatida — L. Ya. Ginzburg tomonidan nazariy jihatdan asoslangan bo'lib, u bu konsepsiyani "qahramonning ichki hayotini tasvirlash qonuniyatlarini o'rganuvchi poetika bo'limi" sifatida ta'riflaydi [5]. O'zbek adabiyotshunosligida esa bu yo'nalish Sh. Botirova, rus olimlaridan A. B. Yesin kabi olimlarning ishlarida davom ettirilgan [1; 4].

Gender identifikatsiyasi masalasi adabiyotshunoslikka feministik tanqid orqali kirib kelgan. 1970–1980-yillarda S. Gilbert va S. Gubar kabi olimlar ayol ijodkorlarning ijtimoiy cheklanishlar sharoitidagi badiiy faoliyatini nazariy jihatdan tadqiq etdi [6]. Adabiy matnda gender — nafaqat biologik jins belgilarini, balki ijtimoiy rol, o'z-o'zini anglash va shaxslararo munosabatlar tizimini ifodalovchi kategoriya sifatida talqin etiladi [7].

Ushbu tadqiqot ikkita muallif — ingliz modernizmining yetakchi vakili **Virjiniya Vulf** (1882–1941) va zamonaviy o'zbek nasrining taniqli namoyandasi Salomat Vafo (1960) ijodlariga murojaat etadi. Vulf nasri adabiyotshunoslikda keng o'rganilgan: uning ong oqimi texnikasi, gender qarashlarini badiiy ifodalash usullari va feministik adabiy metodologiyaga qo'shgan hissiy yuzasidan ko'plab tadqiqotlar mavjud [6; 8]. Salomat Vafo ijodi esa o'zbek adabiyotshunosligida hali yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, uning nasrida gender masalasi va psixologik tasvir usullari o'zbek adabiyotshunosligida hozirgacha atroflicha tahlil qilinmagan.

Shu nuqtai nazardan, ushbu ikki ijodkorni qiyosiy o'rganish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi: turli davr, turli madaniy kontekst va turli adabiy an'anada ijod qilgan bo'lsalar-da, ikkalasida ham ayol shaxsiyati va uning ichki dunyosi markaziy o'rinda turadi. Mazkur mushtaraklik qiyosiy tahlilning asosiy predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, ingliz modernizmi va zamonaviy o'zbek nasri o'rtasidagi tipologik aloqalar komparativistika fani doirasida hali to'liq o'rganilmagan. Jumladan, badiiy psixologizm va gender identifikatsiyasi mezonlari asosida Vulf va Vafo nasrini qiyoslash ilk bor amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — Virjiniya Vulfning hamda Salomat Vafoning nasriy asarlari misolida badiiy psixologizm va gender identifikatsiyasining namoyon bo'lish shakllarini tahlil etish va ikki ijodkor nasri o'rtasidagi tipologik mushtarakliklarni aniqlash.

Tadqiqot obyekti: Virjiniya Vulfning "Mrs Dallovey" (1925) romani, "Shaxsiy xona" (*A Room of One's Own*) (1929) esse-qissasi hamda Salomat Vafoning "O'zini izlayotgan ayol" romani, "Muqaddas manzil" va "Poyezd" hikoyalari.

Tadqiqot predmeti: ushbu asarlarda badiiy psixologizmning qo'llanish usullari, ayol obrazining tavsifi va gender identifikatsiyasining namoyon bo'lish shakllari hisoblanadi.

Metodlar

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Qiyosiy-tipologik metod — Vulf va Vafo asarlarini parallel o'rganish, badiiy psixologizm va gender identifikatsiyasining namoyon bo'lish shakllarini qiyoslash uchun asosiy metod sifatida tanlandi. Sababi, aynan bu metod ikki adibaning nasrini qiyosiy o'rganish va undagi o'ziga xos mushtarakliklarni topish imkonini berdi.

Natijalar

Virjiniya Vulf nasrida badiiy psixologizm va gender identifikatsiyasi

Virginia Vulf ingliz modernizmining yetakchi vakillaridan biri bo'lib, uning ijodiy metodi ichki monolog va ong oqimi texnikasiga asoslanadi [8]. Vulf personajlarning ichki dunyosini voqealar tasviriga qaraganda ustuvorroq qo'yadi va bu orqali ayol shaxsiyatining murakkab ruhiy qatlamlarini ochib beradi. "Mrs Dallovey" (1925) romanida Klarissa Dalloveyning psixologik tasviri bir kunlik vaqt doirasida ong oqimi texnikasi orqali beriladi. Roman boshida Klarissaning xotiralari, hozirgi kuzatuvlari va ichki mulohazalari uzluksiz oqim tarzida birlashib ketadi: u Bon-strit ko'chasida yurganida bolaligi, Piter Uolshga bo'lgan muhabbati va hozirgi hayoti haqidagi o'ylar o'zaro to'qnashadi. Bu texnika orqali muallif Klarissaning jamiyat talablari bilan o'z ichki istagi o'rtasidagi ziddiyatini ko'rsatadi: u aristokrat ayol roliga moslashgan, ammo ichki erkinlikni sog'inadi. Romanda Klarissaning o'ziga o'zi bergan savoli — "Men o'zim kimman?" — gender identifikatsiyasining markaziy muammosini belgilaydi.

"Shaxsiy xona" (1929) esse-romanida esa Vulf ayol ijodkor uchun ikki shart zarurligini asoslaydi: yiliga besh yuz funt daromad va shaxsiy xona [8]. Bu ikki shart moddiy mustaqillik va ijodiy maydonni anglatadi. Moliyaviy xavfsiz va o'z shaxsiy hududiga ega ayolda qobiliyatlarini to'la namoyon qilish imkoniyati ko'proq, degan fikr ilgari surilgan ushbu esse-qissada. Shuningdek, bu asarida Vulf Shekspirning xayoliy singlisi Juditni yaratib, uning ijodiy salohiyati ijtimoiy cheklanishlar tufayli ro'yobga chiqmay qolganini ko'rsatadi. Bu asar feministik adabiyotshunoslikning fundamental matni sifatida tan olingan [6].

Salomat Vafo nasrida badiiy psixologizm va gender identifikatsiyasi

Salomat Vafo zamonaviy o'zbek nasrida ayol shaxsiyatini markazga qo'yuvchi yozuvchi sifatida tanilgan. Uning asarlarida badiiy psixologizm o'zbek milliy adabiy an'anasi bilan uyg'un tarzda namoyon bo'lib, gender masalalari o'zbek ayolining o'ziga xos ijtimoiy-madaniy kontekstida yoritiladi.

"O'zini izlayotgan ayol" romanida bosh qahramon — o'z shaxsiyatini, o'rnini va maqsadini izlayotgan ayol timsolidir. Romanda qahramon ichki monolog orqali o'z hayotini qayta baholaydi: oila va jamiyat unga yuklab qo'yan rollar bilan o'zining haqiqiy istagi o'rtasidagi tafovutni anglaydi. Bu psixologik jarayon — o'zini anglash va qayta tiklash — Vulfning Klarissa Dallovey obrazidagi ichki krizis bilan tipologik jihatdan hamohangdir.

"Muqaddas manzil" asarida ona obrazi ko'p qatlamli tarzda taqdim etiladi: u ham biologik ona, ham Vatan timsoli, ham ayollar birligining ramzidir. Bu ko'p qatlamlilik Vafo nasrida psixologizmning o'zbek milliy kontekstiga moslashgan shaklini namoyon qiladi.

"Poyezd" asarida harakat — poyezdning yo'li — qahramonning ichki o'zgarishining metaforasi vazifasini o'taydi. Bu esa Vulf nasridagi fazoviy metaforalar bilan — Klarissaning shahardagi yurishi, ong oqimining yo'nalishi — strukturaviy jihatdan o'xshashdir.

Qiyosiy tahlil: Vulf va Vafo nasridagi tipologik mushtarakliklar

Ikki ijodkor nasrini qiyosiy tahlil qilish quyidagi tipologik mushtarakliklarni ko'rsatadi:

Birinchidan, ikkalasida ham ayol obrazi asosiy tahlil obyektidir. Vulf ham, Vafo ham ayol qahramonni ikkinchi darajali xarakter sifatida emas, balki o'z ichki dunyosi, ziddiyatlari va qarorlariga ega mustaqil shaxs sifatida tasvirlaydi. Vulf va Vafo o'z asarlarida ayol obrazini to'laqonli ochib berishga harakat qilishadi.

Ikkinchidan, badiiy psixologizmning usul va vositalari jihatidan o'xshashlik kuzatiladi. Ichki monolog, xotiralarga murojaat, hozirgi voqelik bilan o'tmish o'rtasidagi psixologik ko'prik — ushbu usullar ikki ijodkor nasrida ham muhim o'rin egallaydi.

Uchinchidan, jamiyat talablari va shaxsiy erkinlik o'rtasidagi ziddiyat ikkalasida ham markaziy konflikt sifatida namoyon bo'lib, bu ziddiyat ayol qahramonning ruhiy krizisi orqali ifodalanadi.

To'rtinchidan, ijtimoiy-tarixiy kontekst farqi mavjud: Vulf **viktorian** va **edvardian** davri ingliz aristokrat jamiyatini, Vafo esa zamonaviy o'zbek jamiyatini tasvirlaydi. Ammo ikkala kontekstda ham ayolga nisbatan ijtimoiy kutilmalar va gender stereotiplari qahramonning ichki dunyosiga bosim o'tkazadi va ichki konfliktga sabab bo'ladi.

Muhokama

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Virjiniya Vulf va Vafo nasrida badiiy psixologizm hamda gender identifikatsiyasi bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro chambarchas bog'langan poetik-estetik hodisalar sifatida namoyon bo'ladi. Har ikki ijodkor ayol shaxsiyatining shakllanishi, uning jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy rollar bilan munosabati, ichki erkinlikka intilishi va o'zligini anglash jarayonini inson ruhiyatining murakkab qatlamlari orqali tasvirlaydi. Shu jihatdan ularning asarlarida ayol obrazi voqealar rivojini ta'minlovchi oddiy personaj sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy-madaniy muhitda o'zligini izlayotgan, ichki ziddiyatlarni boshdan kechirayotgan va mavjud qadriyatlar tizimiga munosabat bildirayotgan mustaqil badiiy subyekt sifatida talqin etiladi.

Vulf va Vafo ijodidagi muhim tipologik mushtaraklik, avvalo, ayol ruhiyatini tashqi voqelikdan ko'ra ichki psixologik jarayonlar vositasida ochib berishga intilishda ko'zga tashlanadi. Har ikki adib personajlarning xatti-harakatlarini bevosita bayon qilish bilangina cheklanmay, ularning fikrlari, xotiralari, ikkilanishlari, ruhiy iztiroblari, yashirin istaklari va o'z-o'ziga bergan savollarini badiiy tasvir markaziga olib chiqadi. Natijada gender identifikatsiyasi tayyor va o'zgarimas holat sifatida emas, balki shaxsning o'zi, jamiyat, oila va madaniy qadriyatlar bilan murakkab munosabati davomida shakllanadigan dinamik jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Virjiniya Vulf uchun gender identifikatsiyasi masalasi XX asr boshlaridagi ingliz modernizmi, patriarxal ijtimoiy tuzum, sinfiy tabaqalanish va madaniy cheklovlar kontekstida yoritiladi. Uning ayol personajlari tashqi tomondan muayyan ijtimoiy mavqega, moddiy ta'minotga va jamiyatda tan olingan o'ringa ega bo'lishlariga qaramay, ko'pincha ichki erkinlik, mustaqil tanlov va shaxsiy o'zlikni namoyon etish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Bunday qarama-qarshilik Vulf qahramonlarining ruhiy olamida chuqur ichki ziddiyatlarni yuzaga keltiradi.

Masalan, Klarissa Dallovey obrazi ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli va tartibli hayot kechirayotgan ayol timsoli sifatida ko'rinib, uning ichki monologlari, xotiralari va o'tmishga qaytishlari tashqi farovonlik ortida murakkab ruhiy bo'shliq mavjudligini ko'rsatadi. Klarissaning o'z hayot yo'li, nikohi, yoshlikdagi tanlovlari va yo'qotilgan imkoniyatlari haqidagi mulohazalari uning gender identifikatsiyasi jamiyat tomonidan berilgan "rafiqa", "ona", "uy bekasi" va "yuqori tabaqa vakili" kabi rollar bilan to'liq uyg'unlashmaganini anglatadi. U ijtimoiy rolni bajaradi, biroq o'zining individual mohiyatini ana shu rol doirasida to'liq ifodalay olmaydi.

Vulf personajlari uchun asosiy muammo shaxsiy "men" bilan ijtimoiy niqob o'rtasidagi nomuvofiqlikdan iborat. Ayol jamiyat tomonidan belgilangan talablarni bajarar ekan, uning ichki ehtiyojlari, istaklari va fikriy mustaqilligi ko'pincha cheklanadi. Shu sababli Vulf nasrida ayolning o'zligini anglash jarayoni ko'proq ichki qarshilik, ruhiy iztirob va o'z hayotini qayta baholash shaklida yuzaga chiqadi. Uning qahramonlari ochiq ijtimoiy isyondan ko'ra tafakkur, xotira va ichki nutq orqali mavjud tartiblarga qarshilik ko'rsatadilar.

Vafo ijodida esa gender identifikatsiyasi o'zbek ayolining milliy, oilaviy, axloqiy va ma'naviy dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi. Uning ayol qahramonlari o'z shaxsiyatini faqat individual manfaatlar asosida emas, balki oila, farzand, ota-ona, qarindoshlik, mahalla va jamoa oldidagi mas'uliyatlar doirasida anglashga harakat qiladi. Bu holat o'zbek jamiyatida shaxsning ijtimoiy mavqeyi va o'zligi ko'pincha jamoaviy munosabatlar tizimi orqali belgilanilishi bilan izohlanadi.

Vafo qahramonlarining ruhiy izlanishlari ularning milliy qadriyatlar, urf-odatlar, oilaviy majburiyatlar va shaxsiy istaklar o'rtasida muvozanat topishga intilishi orqali namoyon bo'ladi. Bunday personajlar uchun erkinlik jamiyatdan yoki oiladan mutlaq ajralish emas, balki mavjud munosabatlar doirasida o'z qadrlari, ichki ovozi va mustaqil qarashlarini saqlab qolish imkoniyatini anglatadi. Shu sababli Vafo nasrida gender identifikatsiyasi individual o'zlik va jamoaviy mansublikning o'zaro ta'siri asosida shakllanadi.

Vulf qahramonlari o'zligini, asosan, individual xotira, shaxsiy tanlov va ichki kechinmalar orqali anglashga intilsa, Vafo qahramonlari o'z "men"ni oilaviy va ijtimoiy aloqalardan tashqarida tasavvur qila olmaydi. Biroq bu holat ularning shaxsiyati butunlay jamoaviy qadriyatlarga bo'ysundirilganini anglatmaydi. Aksincha, qahramonlarning ichki monologlari, sukutlari, iztiroblari va qarorlarida mavjud ijtimoiy me'yorlarga nisbatan yashirin yoki oshkora munosabat ifodalanadi. Shu tariqa Vafo ayolning tashqi itoatkorligi ortida ichki qarshilik, ruhiy mustaqillik va o'zlikni saqlab qolish istagi mavjudligini ko'rsatadi.

Ikki adib ijodida badiiy psixologizm gender identifikatsiyasini yoritishning asosiy vositasiga aylanadi. Ichki monolog, ong oqimi, xotira, retrospektiv tasvir, psixologik detal, sukut, ruhiy parallelizm va muallif nutqining personaj nutqi bilan qo'shilib ketishi qahramonlarning ichki dunyosini ochishga xizmat qiladi. Vulfda ong oqimi personaj tafakkurining uzluksiz, parcha-parcha va assotsiativ harakatini ifodalasa, Vafo nasrida ichki monolog ko'proq axloqiy tanlov, oilaviy mas'uliyat va ijtimoiy bosim bilan bog'liq ruhiy mulohazalarni yoritadi.

Vulf nasrida vaqt ham psixologik xarakter kasb etadi. Bir kun yoki bir necha soat davomida yuz bergan voqealar personaj xotirasida o'tmishning keng qatlamlarini jonlantiradi. Natijada tashqi vaqt bilan ichki vaqt o'rtasida tafovut yuzaga keladi. Qahramonning bir lahzalik taassuroti uning butun hayoti, yoshlik xotiralari va amalga oshmagan imkoniyatlari bilan bog'lanadi. Bunday poetik usul ayol identifikatsiyasining tarixiy va biografik jihatdan murakkab shakllanganligini ko'rsatadi.

Vafo nasrida ham xotira qahramonning o'zligini anglashida muhim rol o'ynaydi. Biroq undagi xotira individual kechinmalar bilan bir qatorda oilaviy tarix, avlodlar tajribasi, milliy urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlarni ham qamrab oladi. Shu sababli Vafo qahramonining shaxsiy o'tmishi ko'pincha oilaning yoki jamiyatning umumiy xotirasi bilan tutashadi. Bu esa gender identifikatsiyasining faqat individual emas, balki madaniy va avlodlararo xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Har ikki ijodkorda ayolning ichki nutqi tashqi ijtimoiy nutqqa qarshi qo'yiladi. Jamiyat ayolga qanday yashash, qanday fikrlash va qanday vazifalarni bajarish lozimligini belgilab bersa, uning ichki ovozi bu me'yorlarning shaxsiy ehtiyojlarga qanchalik mos kelishini savol ostiga qo'yadi. Vulfda bu qarama-qarshilik individual erkinlik va patriarxal jamiyat o'rtasidagi ziddiyat sifatida namoyon bo'lsa, Vafo nasrida shaxsiy istaklar bilan oilaviy-axloqiy mas'uliyat o'rtasidagi murakkab munosabat shaklida aks etadi. Ushbu farq ikki adabiy an'ananing o'ziga xos estetik va madaniy xususiyatlarini ifodalaydi. Ingliz modernizmi shaxsning ichki olami, individual tafakkur, subyektiv vaqt va ongning murakkab harakatlarini ustuvor yo'nalish sifatida ilgari suradi. Shu sababli Vulf asarlarida gender identifikatsiyasi individual shaxsiyatning jamiyat tomonidan qo'yilgan cheklavlardan ozod bo'lishi, o'z ovozi topishi va mustaqil mavjudlik huquqini anglash bilan bog'liq.

Zamonaviy o'zbek nasrida esa shaxs o'zini ko'pincha oila, jamiyat, an'ana va milliy qadriyatlar bilan munosabatda anglaydi. Vafo qahramonlarining gender identifikatsiyasi ham ana shu ijtimoiy-madaniy munosabatlardan tashqarida shakllanmaydi. Ayol o'zligini topishga intilar ekan, u bir vaqtning o'zida oila va jamoa bilan aloqalarini saqlab qolishga harakat qiladi. Natijada uning ruhiy ziddiyatlari individual erkinlik va jamoaviy mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni izlash jarayonida yuzaga keladi. Shu bilan birga, Vulf va Vafo ijodi o'rtasidagi tafovutni faqat individualizm va jamoaviylik qarama-qarshiligi bilan cheklash to'liq ilmiy xulosa bermaydi. Vulf qahramonlari ham ijtimoiy munosabatlardan mutlaq ajralgan emas, Vafo personajlari esa individual ehtiyoj va shaxsiy tanlovdan mahrum holda tasvirlanmaydi. Farq mazkur omillardan qaysi biri badiiy va kommunikativ dominant sifatida ilgari surilishida namoyon bo'ladi. Vulfda individual ong va ichki erkinlik markaziy o'rinni egallasa, Vafo nasrida shaxsiy o'zlikning oila va jamiyat bilan uyg'unlashuvi yoki to'qnashuvi yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Ikki adib asarlarida mushtaraklik badiiy usullar darajasida ham ko'rinadi. Ular voqeabandlikni ikkinchi planga

surib, qahramon ruhiyatidagi nozik o'zgarishlarni tasvirlashga e'tibor qaratadi. Ichki monolog, psixologik portret, xotira, assotsiativ tasvir va ruhiy detal ayolning tashqi hayoti bilan ichki olami o'rtasidagi tafovutni yoritadi. Biroq mazkur vositalarning badiiy vazifasi har ikki adibda turlicha mazmun kasb etadi. Vulfda ular individual ongning murakkabligini va modern insonning begonalashuvini ifodalasa, Vafo nasrida ayolning milliy-madaniy muhitdagi axloqiy tanlovi va ijtimoiy maqomini ochishga xizmat qiladi. Shu bois Vulf va Vafo nasridagi tipologik mushtaraklik, avvalo, ayol ruhiyatini ichki nutq va psixologik tasvir orqali ochish, gender identifikatsiyasini jarayon sifatida talqin etish hamda tashqi ijtimoiy rol bilan ichki "men" o'rtasidagi ziddiyatni aks ettirishda namoyon bo'ladi. Ular o'rtasidagi farqlar esa personajlarning o'zligini anglash yo'nalishi, madaniy muhit, ijtimoiy qadriyatlar va muallifning estetik maqsadi bilan belgilanadi.

Demak, Vulf va Vafo ijodini qiyosiy o'rganish G'arb modernistik nasri bilan zamonaviy o'zbek nasri o'rtasidagi poetik aloqalarni aniqlash imkonini beradi. Bunday tahlil gender identifikatsiyasining turli madaniy muhitlarda qanday badiiy shakllanishini, ayol ruhiyatining individual va jamoaviy omillar ta'sirida qay tarzda namoyon bo'lishini ochib beradi. Natijada mushtaraklik usul va psixologik tasvir tamoyillarida, farq esa mazkur usullarning g'oyaviy yo'nalishi, madaniy mazmuni va badiiy maqsadida ko'zga tashlanadi. Bu esa ikki ijodkor merosini qiyoslash orqali badiiy psixologizm, gender poetikasi va madaniyatlararo adabiy aloqalarni tadqiq etish uchun yangi ilmiy-nazariy nuqtayi nazarni shakllantiradi.

Xulosa

Amalga oshirilgan qiyosiy tahlil asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Virjiniya Vulf nasrida badiiy psixologizm ong oqimi va ichki monolog texnikasi orqali amalga oshiriladi. Bu texnikalar personajning ichki ziddiyatlarini, xususan, ayol shaxsiyatining jamiyat bilan to'qnashuvini yaqqol aks ettiradi.
2. Salomat Vafo nasrida badiiy psixologizm ichki monolog va timsolli obrazlar orqali namoyon bo'lib, o'zbek milliy adabiy an'anasi bilan uyg'unlashgan holda gender identifikatsiyasi masalasini yoritadi.
3. Ikki ijodkor nasrida tipologik mushtarakliklar aniqlandi: ayol obrazining markaziy o'rni, ichki monolog va psixologik krizis usullarining umumiyliigi, jamiyat bosimi va shaxsiy erkinlik o'rtasidagi markaziy ziddiyat.
4. Ikki ijodkor o'rtasidagi farq maqsad va kontekst darajasida namoyon bo'lib, Vulf ingliz modernizmi individualizmiga, Vafo esa o'zbek nasrining jamoaviy qadriyatlar tizimiga tayanadi.
5. Ushbu tadqiqot o'zbek komparativistikasida ingliz modernizmi va zamonaviy o'zbek nasrini qiyosiy o'rganishning yangi yo'nalishini belgilab beradi va keyingi chuqurroq tadqiqotlar uchun zamin hozirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Botirova Sh. *Hozirgi o'zbek romanlarida badiiy psixologizm (Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" romanlari misolida): falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.* – Qarshi, 2019. – 153 b.
2. Vafo S. *Muqaddas manzil: hikoyalar.* – Toshkent: Sharq, 2005.
3. Vafo S. *O'zini izlayotgan ayol: roman.* – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
4. Vafo S. *Poyezd: hikoya.* – Toshkent: Sharq, 2008.
5. Гинзбург Л. Я. *О художественной психологии.* – Ленинград: Советский писатель, 1971. – 414 с.
6. Gilbert S., Gubar S. *The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination.* – New Haven: Yale University Press, 1979. – 719 p.
7. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. *Adabiyotshunoslik lug'ati.* – Qayta nashr. – Toshkent: Akademyanashr, 2013. – 200 b.
8. Woolf V. *A Room of One's Own.* – London: Hogarth Press, 1929. – 172 p.
9. Woolf V. *Mrs Dalloway.* – London: Hogarth Press, 1925. – 296 p.
10. Есин А. Б. *Психологизм русской классической литературы.* – Москва: Просвещение, 1988. – 176 с.